

## QO'SHIQQA AYLANGAN SATRLAR (Iqbol Mirzo she'rlari asosida)

**Ismoilova Aziza Tohir qizi**

*Xorazm viloyati Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi*

**Ilmiy rahbar: Manzura Pirnazarova  
Matnazarovna**

***Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakili Iqbol Mirzo she'rlarining umrboqiyliigi, xalqimiz qalbida uzoq davrlardan buyon joy olib kelishi, qo'shiqqa aylangan orombaxsh satrlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar :** umrboqiy satrlar, she'riyat, badiiy mahorat, estetik ta'sir.*

Har bir shoir o'z she'rlarining mukammal, serjilo, ohangrabo va go'zalligini ta'minlash uchun astoydil harakat qiladi. Bu yo'lda izlanadi, badiiy kashfiyotlar, g'oyaviy topilmalar qiladi. Bunday rejalar esa ijodkorning ijoddan ko'zlagan maqsadini belgilab beradi. Ana shunday chuqur mushohadali fikrlarga qiziqtiruvchi, oddiy xalqona so'zlardan ham badiiy topilmalar yaratuvchi ulkan adib O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzodir. Iqbol Mirzo zamonaviy o'zbek adabiyotining eng yorqin, sermahsul va zabardast ijodkorlardan biri desak hech adashmagan bo'lamiz. Uning har bir satrlari kishi ichki dunyosiga yo'l ochadi, ko'ngil sirlaridan kuylaydi. Shoir ijodi har bir yurakni to'lqinlantirib, dil toridan taralgan misralari insonga o'zgacha ruh, tarovat bag'ishlaydi.

Iqbol Mirzo so'zni qadrllovchi shoir ekanligini ko'ngil mahzanidan to'kilgan ijod mahsulidan anglab olish qiyin emas. Darhaqiqat, shoir ijodidagi umumbashariy mavzular davrlar o'tsa hamki abadiyatga dahldor bo'lib qolaveradi. Shoir ijodidagi Vatan manzaralari yoki milliy ohanglar yo qadimgi turkiy so'z jozibalari shoir kundaligida doimo charaqlab turibdi. Ayniqsa, ijodkor she'riyatida Vatan manzaralar, milliy ohanglarni aks ettiruvchi she'rlari bugun qo'shiqlar og'ushida jilolanadi. Shoir kundaligida yoritilgan umuminsoniy mavzular, ya'ni Vatan, millat tushunchalarining tirikligini isbotlaydigan va kelajagiga zamin hozirlayotgan noyob shoirlar qatorida ekanligini ko'rsatadi.

Shoirning "Oydan tushgan emas" [Agar jannat ko'kda bo'lsa " 3- bet] nomli she'rining dastlabki satrlarida buyruq ohangi bilan boshlanadi. "Eski olchoq" undalmasi orqali lirik qahramon unga aql o'rgatmoqchi bo'lganlarni oldin o'ziga boqib so'ng, nog'ora chalishga chaqiradi. Shoir nazarida unga qanday yashamoqni o'rgatmaslik kerak. Sababi lirik qahramon bu yo'llarni allaqachon bosib o'tgan, o'zi guvoh bo'lgan. Keyingi misralarida esa shularni izohini qoldirar ekan, shoir bu elga nisbatan yurak- bag'ri kuyuk , Yaratganning qoshida eng suyuk, o'tmishi ham , kelajagi buyuk degan sifatlanishlarni qo'llaydi. " O'zbek eli hech kimsaga qaram

bo'lmagay" misrasi she'rda butun misrani o'zida jamlaganday bo'lib ko'rinadi. Haqiqatan ham keyingi satrlarda shunga izoh berar ekan, shoir, eng avvalo, ajdodlarimiz xotirasini yodlaydi. Kitobingda daholarimizning so'zlari borligini, devoringda bobolarimning izlari borligini, mag'rur elning et- u tirnoq do'stlari borligini alohida aytib o'tadi. Quyidagi satrlar esa she'r yakunida xuddi naqorotdek bo'lib yangraydi:

Agar jannat ko'kda bo'lsa

Ostidadir O'zbekiston

Agat jannat yerda bo'lsa

Ustidadir O'zbekiston!

Shoirning "O'zbek" ["Qo'shiqlarim" 63- bet] she'rida ham dastlab o'tmishni eslashni ko'rishimiz mumkin. Bu she'rida shoirning so'z qo'llash mahoratiga ham qoyil qolishimiz kerak. So'z takrori, undalmalardan chiroyli tarzda foydalanib she'r ohorini yanada oshirgan. She'rdagi tarixiy toponimlarni qo'llash orqali shoir o'tgan davrlarni ham yodga solib o'tadi. Har band yakunidagi "o'zbek" so'zining takrori esa aynan shu so'zga urg'u berish lozimligini ko'rsatadi. She'rdagi "Bizning qayg'umiz yo'q boladan boshqa" misrasi orqali o'zbek xalqining naqadar bolajon xalq ekanligini yana bir bora ko'rsatib o'tadi. Shuncha katta shaharlarni kezsa hamki, uning ko'ngli to'lmay dalasini sog'inib o'z ona xalqiga" qadoqqo'l singlim" deya murojaat qiladi. So'nggi misrasida esa shoirning butun she'rining mazmuni bir satr ekanligini aytib o'tib quyidagi misralarni keltirib o'tadi:

Sumbula- to'kinlik, to'ylar mavsumi,

Bir qo'zg'alib olar bog'bonning xumi.

Asli bir satrdir she'rim mazmuni:

To'ylarga ulansin to'ylarning o'zbek.

Bunday tushunchalarni shoirning yana ko'plab she'rlarida kuzatishimiz mumkin. Bularning barchasi shoir yuragidan otilib chiqqan po'rtanadek xalqning yuragiga yetib boradi. Quyida shoirning yurt madhiga bag'ishlangan "O'zbekiston - yolg'izim" [Aytgil do'stim, nima qildik Vatan uchun" 104- bet] she'rini tahlilga tortamiz. She'rning dastlabki satrlari ko'tarinki ruh bilan boshlanadi. Har bir band yakunida ikki misra o'zaro qofiyalanib keladi. "Jon ichra jonim mening O'zbekiston" degan go'zal satr barcha bandlar oxirida yangrab turadi. Ikkinchi bandda shoir Samandar, Buzrukvor, Alpomish nomlarini tilga olib o'zbek xalqini uzoq yo'llar bosib o'tganligini aytib o'tadi. Uchinchi misrada shoir so'roq ohangi yordamida o'quvchini o'yga toldiruvchi savollar bilan yuzlanadi. "Yurtin sevmas odam inson bo'lgaymi?" degan misrasi barchamizni chuqur o'yga toldiradi. Shoirning oxirgi misrasi barchamiz uchun aziz xalqimizni madh qilish bilan, uning

go'zal sifatlarini, qanday kunlarni boshidan o'tkazganligini eslash va ona yurtimizni madh qilish bilan yakunlanadi:

Necha asr ko'z yoshlarin yutgan el,  
Sohibqiron qaytishini kutgan el,  
Yurtboshini suyib boshga tutgan el,  
O'zbekistonim mening O'zbekiston,  
Jon ichra jonim mening O'zbekiston.

**Xulosa.** Umuman olganda, shoir ijodidagi umumbashariy mavzular, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan mavzular barchaning ko'nglidan joy olib ulgurgan. Taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari nomzodi Rahmon Qo'chqor shoir ijodiga qarata: U "Vatan" so'zini ishlatmay, bu mo'tabar makon haqida yozishni, "Xudo" kalimasini tilga olmay, imyon haqida so'zlashi, "Ozodlik" haqida hayqirmay, uning naqadar buyuk ne'mat ekanligini muxlisga anglatishi mumkin", deya shoirning badiiy mahorati yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, shoirning so'z ishlatish mahorati, qalblarga ta'sir qila olishini baralla aytish mumkin. Yana ko'p yillar davomida shoir abadiy mavzularni qalamga olib xalqimiz qalbidan chuqur joy olishiga, u yaratgan har bir satrlar qo'shiq bo'lib jaranglashiga ishonamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Iqbol Mirzo. Agar jannat ko'kda bo'lsa. Sharq. T: 2010.
2. Iqbol Mirzo. Qo'shiqlarim. " Istiqlol" T: 2004.
3. Iqbol Mirzo. Aytgil do'stim, nima qildik Vatan uchun . " O'zbekiston " T: 2014.